

QORAMOLCHILIKDA, ChATISHIRISH NATIJASIDA OLINGAN SIGIRLARNI OZIQLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

¹F. SH. Raimova, ²D.Yu. Jiyanova, ³R. Norjigitov, ⁴J. M. Isayev, ⁵M. B. Normuminova
Magistrlar^{1,2}, Assistentlar^{3,4,5}

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada qoramolchilikda, chatishtirish natijasida olingan sigirlarni oziqlantirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Калит сўзлар: *chatishtirish, генотип, зотдорлик, маҳсулдорлик, физиологик кўрсаткичлар.*

KIRISH

Chorvachilikka oid bo'lgan ko'plab maxsus ilmiy va uslubiy manbalarda chorva mollarini turi, zoti, zotdorligi, populyatsiyasi, jinsi va yoshidan qat'iy nazar ularni oziqlantirish va ozuqaning sifati mahsuldorlik bo'yicha genetik potensialini to'liq yuzaga chiqarishda muhim va asosiy omil ekanligi ta'kidlangan.

Ushbu ilmiy manbalarda qayd qilinishicha hayvonlarni, shu jumladan qoramollarni ham mahsuldorligiga (sut, go'sht va hokazo) ta'sir qiladigan barcha omillarni 100 foiz deb qaraydigan bo'lsak, shundan 59 foizini aynan ozuqa omili, 22 foizini naslchilik ishlarini tashkil qilish omili va 19 foizini esa texnologik omillar tashkil qilgan ekan.

Demak, nafaqat ozuqani salmog'i, balki uni sifatini ya'ni, to'yimlilik darajasini yaxshilash ham bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri ekan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, chorva mollarini oziqlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash talab darajasida deb bo'lmaydi. Mahalliy rahbarlarning va mutasaddilarning loqaydligi tufayli ko'pgina xo'jalik va tumanlarda ozuqabop ekinlar maydoni 2-3 barobar kamayib ketdi. Boz ustiga ularning hosildorligi ham kutilgan darajadan ancha past.

Qabul qilingan Davlat qonunlari hamda Prezidentimizning 308 va 842-sonli qarorlarida sug'oriladigan yerlardan kamida 0,30-0,45 gektardan ozuqabop ekinlar uchun yer maydoni ajratish belgilangan, afsuski amalda bu ko'rsatkich bajarilmay qolmoqda. Buning ustiga ozuqabop ekinlarning hosildorligi o'rtacha 49-50 s ozuqa birligiga to'g'ri kelib, masalani yanada chigallashtirmoqda. Natijada, Respublika xo'jaliklarida boqilayotgan bir bosh shartli molga 16-17 sentnerdan ozuqa birligi to'g'ri kelmoqda, bu esa bir bosh sog'in sigirdan sog'ib olinadigan sutni 1700-2000 kilogrammdan oshmasligiga sabab bo'lmoqda.

U.N.Nosirov va boshqalarning (2011) ta'kidlashicha 1 kg sut ishlab chiqarishga 1 ozuqa birligi, 110 gramm hazmlanuvchi protein bo'lishi lozim. Ratsionda kuchli ozuqalar-33%, shirali ozuqalar-55foiz va dag'al ozuqalar-12 foiz bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tajribadagi sigirlarni oziqlantirishda biz yuqoridagi talablarga rioya qilishga harakat qildik. Quyidagi 1-jadvalda tajribadagi sigirlar uchun qish faslida tuzilgan ratsion na'munasi berilgan

1-jadval

Tajribadagi sigirlarning qishki ozuqa ratsioni (o'rtacha bir boshga)

Ozuqa turlari	Ozuqa miqdori, kg	Ozuqa tarkibi								
		Ozuqa birligi, kg	Quruq modda, kg	Almashinuvchi energiya, MDj	Hazmlanuvchi protein, g	Klechatka, g	Qand, g	Kalsiy, g	Fosfor, g	Karotin, mg
Beda pichani	3	1,29	1,29	9,7	180,0	419,0	180	6,8	2,7	96
Bug'doy somoni	2	0,44	1,90	14,0	18,0	1107	127	11,0	2,7	8
Senaj	5	1,95	3,0	2,90	317,5	1050	150	67	8,75	34,0
Makkajo'xori silosi	20	3,8	6,5	58	284	2200	122	30	9	240
Xashaki lavlagi	10	2,3	2,2	25	104	180	900	5	5	50
Omuxta yem	2	1,66	1,75	21,5	230	160	145	10,5	26,0	X
Shrot	1	0,87	0,900	8,9	311	158	173	3,4	10,5	1,0
Osh tuzi, g	100	x	x	x	x	x	x	x	x	X
Jami:	x	12,3 1	17,54	140,0	14445	5274,0	1797	133,7	64,7	429

Ushbu jadvaldan shunday xulosa qilish mumkinki, ratsion tuzishda sigirlarning genetik kelib chiqishi e'tiborga olinmagan, ratsion tarkibida asosan xo'jalikning o'zida yetishtirilgan: beda pichani, somon, silos, senaj, xashaki lavlagi, paxta shroti, omuxta yem kabi 7 xil ozuqa kiritilgan.

Tajribadagi hayvonlarning genetik kelib chiqishidan qat'iy nazar, ularning ratsioni tarkibi va to'yimliliigi bir xildir, qish fasli uchun mo'ljallangan ratsionning umumiy to'yimliliigi 12,31 ozuqa birligiga teng bo'lgan. Bunda 1 ozuqa birligiga: 1,42 kg quruq modda, 117 g hazmlanuvchi protein, 11,4 MDj almashinuvchi energiya, 428,4 g klechatka, 145,8 g qand, 10,86 g kalsiy, 5,26 g fosfor va 34,8 g karotin to'g'ri kelgan. Qand-protein nisbati 1:0,24 ga teng bo'lgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ratsiondagi qand-protein nisbati me'yor darajasidan biroz past bo'lgan. Demak, qand moddalariga unchalik boy bo'lmagan ozuqalar berilgan.

Tajribadagi sigirlarning mahsuldorligini salmog'ini va sifatini oshirishda yoz faslida oziqlantirishni to'g'ri tashkil etish muhim hisoblanadi, chunki sog'in sigirlarning beradigan sut mahsuldorligini yarmi va undan ko'prog'i aynan shu faslga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham biz tajribadagi hayvonlarni ushbu faslda oziqlantirganda yuqoridagilarni e'tiborga oldik (2-jadval).

2-jadval
Tajribadagi hayvonlarning yozgi ratsioni (o'rtacha bir boshga)

Ozuqa turlari	Ozuqa miqdori, kg	Ozuqa tarkibi							
		Ozuqa birligi, kg	Quruq modda, kg	Almashinuvchi energiya, MDj	Hazmlanuvchi protein, g	Klechatka, g	Qand, g	Kalsiy, g	Fosfor, g
Yashil beda	25	4,5	7,50	62,5	2060	2250	1252	117	37
Makkajo'xorining yashil massasi	30	5,1	12,3	93,0	810	5280	1800	120	48
Omuxta yem	3	2,40	2,6	31,8	376	234,6	168	15,9	26,1
Paxta sheluxasi	3	0,66	2,4	17,1	27	1135	181	16,0	3,5
Shrot	1	0,87	0,894	8,9	311	156	150	3,4	10,7
Osh tuzi, g	100	x	x	x	x	x	x	x	X
Jami:	x	13,53	25,40	213,3	3584	9055,6	3551	272,3	125,3

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yozgi ratsion, qishki ratsiondan o'zining tarkibi va to'yimlilik bilan ham keskin farq qilgan. Yozgi ratsionning 1 ozuqa birligiga 1,88 kg quruq modda, 4,62 MDj almashinuvchi energiya, 152 g hazmlanuvchi protein, 166,3 g klechatka, 92,5 g qand, 8,65 g kalsiy, 2,73 g fosfor to'g'ri kelgan. Ratsiondagi bu ko'rsatkichlar qishki ratsion ko'rsatkichlaridan shunga mos ravishda: 1,21 kg, yoki 8,9 foiz ozuqa birligi, 7,86 kg, yoki 44,2 foiz quruq modda, 73,3 g MDj, yoki 52,3 foiz almashinuvchi energiya, 2139,5 g, yoki 148 foiz hazmlanuvchi protein, 3781,6 g, yoki 71,7 foiz klechatka, 175,4 g, yoki 97,7 foiz qand, 138,6 g, yoki 103,7 foiz kalsiy, 60,6 g, yoki 93,7 foiz fosfor ziyod bo'lgan.

Ratsionning quruq moddasi va undagi klechatka tajribadagi sigirlar oshqazonidagi mikrobiologik jarayonlar uchun qulay bo'lib, ozuqalarning yaxshi hazm bo'lishiga, o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, tajribadagi sigirlarning fasillar bo'yicha tuzilgan ratsionida, ularning maxsuldorlik ko'rsatkichlari etiborga olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdolnizozov B.O. Qoramollarning qizil cho'l zoti O'zbekistonda. Urganch. 2010. 208 b.
2. Калашников А.П и др. Нормы и рационы кормления сеельскохозяйственных животных. Масква «Знание» 1994. 400с
3. Недова Л.Б. Методика оценки племенного скота по оплате корма молоком. Методики исследований в животноводстве. Харьков. 1966. с. 29-34
4. Xaydarov K. Yaxyaev B. Kuziev I. Sigirlarning maxsulot berish imkoniyatlaridan to'liq foydalanish-talabning qondirilishiga bog'liq. //Zooveterinariya . 2012. № 1. 31-33 b.